

37. Texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarning huquq va majburiyatlari texnikumning ichki tartib-qoidalari, odob-axloq qoidalari va lavozim yo'riqnomalarida belgilanadi.

38. Texnikumning o'qituvchi va boshqa xodimlari tarkibini davriy attestatsiyadan o'tkazish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

39. Texnikumda faoliyatini olib borayotgan umumta'lim fanlari o'qituvchilarining malakasi A. Avloniy nomidagi pedagogik milliy mahorat instituti va hududiy pedagogik mahorat markazlarida, maxsus fan o'qituvchilarining malakasi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malakasi hududiy ilg'or kasbiy mahorat Texnikumi va belgilangan tartibda tegishli soha bo'yicha malaka oshirish faoliyatini olib borish huquqiga ega tashkilotlarda oshiriladi.

40. Ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilinadi va mahalliy pedagoglarni chet elga malaka oshirish va stajirovka o'tashga yuboriladi.

7-bob. Jamoat tashkilotlari

41. Texnikumda o'quvchi, pedagog xodim, ma'muriy va yordamchi xodimlarni birlashtiruvchi jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Jamoat tashkilotlarining faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

42. Texnikum o'quvchilarining yoshlar ishlari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti jamoatchilik asosida tashkil etilib, yoshlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi hamda oshkoralik va adolat tamoyillari asosida ish yuritadi.

43. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmasi qo'mitasi texnikum xodimlari va o'quvchilarining ko'ngilli jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etiladi.

44. Texnikumda xodimlar o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida Kasaba uyushmasi qo'mitasi kasaba uyushmalari to'g'risidagi va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan ish ko'radi.

8-bob. Texnikumning huquq va majburiyatlari

45. Texnikum:

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan vakolati doirasida shartnomalar va normativ-hujjatlar tuzish, jumladan xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish uchun xorijiy va mahalliy tashkilotlar bilan to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va ushbu Ustavga zid bo'lmagan faoliyatni amalga oshirish;

ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida tanlovlar tashkil etish;